

## **QUTQARUV ISHLARIDA ZAMONAVIY TEXNIKA VOSITALARIDAN FOYDALANISH**

*Nasriddinov Jasurbek Muhammadjon o'g'li*  
*NamDU San'atshunoslik kafedrasi o'qituvchisi*  
*Mamadaliyev Nodiebek Muhammadali o'g'li*  
*NamDU Hayot faoliyati xavfsizligi ta'lim*  
*yo'nalishi III-bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** Ushmaqolada favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini samarali tashkil etishda zamonaviy texnika vositalarining o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Dronlar, robot texnikalar, issiqlikdan tasvirga olish qurilmalari, GPS kuzatuv tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar va maxsus qutqaruv mashinalaridan foydalanishning afzalliklari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistonning FVV tizimida zamonaviy texnikalarning joriy etilishi bo'yicha amaliy tajribalar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Qutqaruv ishlari, zamonaviy texnika, dron, robototexnika, issiqlik kamerasi, sun'iy intellekt, favqulodda vaziyat, monitoring tizimi.

**Annotation:** This article analyzes the role and importance of modern technical means in the effective organization of rescue operations in emergency situations. The advantages of using drones, robotics, thermal imaging devices, GPS tracking systems, artificial intelligence-based programs, and special rescue vehicles are considered. It also covers practical experiences in the implementation of modern techniques in the emergency services system of Uzbekistan.

**Keywords:** Rescue work, modern technology, drones, robotics, thermal imaging, artificial intelligence, emergency situations, monitoring system.

**Аннотация:** В статье анализируются роль и значение современных технических средств в эффективной организации спасательных работ в чрезвычайных ситуациях. Рассматриваются преимущества использования беспилотных летательных аппаратов, робототехники, тепловизионных приборов, систем GPS-слежения, программ на основе искусственного интеллекта и специальных спасательных транспортных средств. Также освещается практический опыт внедрения современных технологий в систему экстренных служб Узбекистана.

**Ключевые слова:** Спасательные работы, современные технологии, беспилотники, робототехника, тепловизионная камера, искусственный интеллект, чрезвычайная ситуация, система мониторинга.

Qutqaruv ishlari favqulodda vaziyatlarda inson hayotini saqlab qolishning eng muhim bosqichidir. Zilzila, yong'in, suv toshqini, ko'chkilar, texnogen halokatlar kabi

xavfli holatlarda tezkorlik va aniqlik qutqaruv jarayonining samaradorligini belgilaydi. Shu bois zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish bugungi qutqaruv tizimining ajralmas qismiga aylangan.

Hozirgi kunda dunyoda qutqaruv amaliyotida dronlar yordamida havodan razvedka ishlarini olib borish, robotlar yordamida vayronalar ostidan odamlarni qidirish, issiqlik kameralar bilan ko'rinmaydigan obyektlarni aniqlash, GPS orqali yo'nalishlarni belgilang hamda sun'iy intellekt yordamida xavf prognozini chiqarish kabi ilg'or texnologiyalar qo'llanilmoqda. Ushbu texnika vositalari qutqaruvchilarning hayotini xavfqa qo'ymasdan, jarayonni tez va aniq bajarish imkonini beradi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda FVV tizimida zamonaviy texnika va uskunalar — qidiruv dronlari, maxsus qutqaruv mashinalari, gidravlik qaychi va presslar, gaz analizatorlar, issiqlikdan tasvirga olish moslamalari keng qo'llanilmoqda. Bu yurtimizda qutqaruv tizimining samaradorligini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos ravishda ishlash imkoniyatini yaratmoqda.

**Favqulodda vaziyat** — odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat;

**Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish** — favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'liqni saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarining kengayishiga yo'l qo'ymaslikka hamda xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar kompleksi;

**Favqulodda vaziyatlarning oldini olish** — oldindan o'tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi;

**Qutqaruvchi** — muayyan dastur bo'yicha qutqaruv ishlariga tayyorlangan va belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tgan o'zbekiston Respublikasi fuqarosi;

**Qutqaruv vositalari** — qutqaruv ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan texnik, ilmiy-texnik va intellektual mahsulot, shu jumladan maxsus aloqa va boshqaruv vositalari, texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar, mol-mulk, qutqaruv ishlarini bajarish texnologiyasiga doir uslubiy materiallar, videomateriallar, fotomateriallar, elektron hujjatlar, shuningdek elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlar bazalari, boshqa vositalar;

**Qutqaruv ishlari** — favqulodda vaziyatlar zonasida odamlarning hayotini asrab qolish va sogʻligʻini saqlash, yuridik hamda jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va ularga xos boʻlgan xavfli omillar taʼsirini yoʻqotish yoki imkon qadar kamaytirishga qaratilgan harakatlar;

**Qutqaruv tuzilmasi** — favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish ishlarini olib borish uchun moʻljallangan, asosini maxsus texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqaruv vositalari bilan taʼminlangan qutqaruvchilar boʻlinmalari tashkil etgan mustaqil tuzilma yoki qutqaruv xizmati tarkibiga kiruvchi tuzilma;

**Qutqaruv xizmati** — faoliyati boʻyicha yagona tizimga birlashtirilgan, asosini professional qutqaruv tuzilmalari tashkil etgan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir vazifalarni hal qilish uchun moʻljallangan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmui.

### **Qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilar faoliyatining asosiy prinsiplari**

Qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilar faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

insonparvarlik va mehr-muruvvat;

favqulodda vaziyatlar roʻy berganda odamlarning hayotini asrab qolish va sogʻligʻini saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish vazifalarining ustuvorligi;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini olib borishda asosli tavakkalchilik va xavfsizlikning taʼminlanishi;

qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilarga yakkaboshchilik asosida rahbarlik qilish;

favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilishga hamda ularni bartaraf etish ishlarini olib borishga qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilarning doimiy shayligi.

### **Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining asosiy vazifalari**

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

oʻz boshqaruv organlari, kuchlari va qutqaruv vositalarini favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilishga hamda ularni bartaraf etish ishlarini olib borishga doimiy shay holatda saqlab turish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish boʻyicha harakatlar rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish, shuningdek favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish;

favqulodda vaziyatlar sharoitida yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish ishlarini olib borish;

aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni targ'ib qilish, aholini hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) xodimlarini favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyorlashda ishtirok etish.

### **Qutqaruv ishlarining turlari**

Qutqaruv ishlariga avariya-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv, tog'-kon qutqaruv, suv-qutqaruv, gaz-qutqaruv ishlari, shuningdek yong'inlarni o'chirish hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq ishlar kiradi.

### **Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini tashkil etish**

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari quyidagi asoslarda tashkil etilishi mumkin:

doimiy shtat asosida — qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalari;

shtatsiz asosda — shtatdan tashqari qutqaruv tuzilmalari.

Qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalari:

respublika miqyosida — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan;

hududlar miqyosida — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining qaroriga binoan;

### **Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining faoliyati**

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari o'z faoliyatida ushbu Qonunga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

Qutqaruv xizmatlarining, professional qutqaruv tuzilmalarining rahbarlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qabul qilinadigan qarorlar shu xizmatlar va tuzilmalarning barcha xodimlari, shuningdek favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini olib borishga jalb etilgan shtatdan tashqari qutqaruv tuzilmalari va jamoat qutqaruv tuzilmalarining xodimlari bajarishi uchun majburiydir.

Qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalari obyektlar hamda hududlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'z faoliyatini shartnoma asosida amalga oshirishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlar tahdidi bo'lganda va ular ro'y berganda hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish chog'ida qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv

tuzilmalarida jamoaga doir mehnat nizolarini hal etish vositasi sifatida qutqaruv ishlarini tugatishga yo'l qo'yilmaydi.

Shtatdan tashqari qutqaruv tuzilmalari tashkil etilgan tashkilotlarning rahbarlari qutqaruvchilarni qutqaruv ishlari olib borishning maxsus ko'nikmalariga o'rgatish bo'yicha muntazam mashg'ulotlar uyushtiradi hamda ularni maxsus aslaha-anjomlar bilan ta'minlaydi.

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining favqulodda vaziyatlarda tezkor harakatlar qilishga hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini olib borishga shayligi uchun davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va tashkilotlarning, shu jumladan jamoat birlashmalarining rahbarlari mas'uldir.

Qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalarining tezkor transporti maxsus tovush va yoritish signal asboblari bilan ta'minlangan, shuningdek belgilangan namunadagi ranglarga bo'yalgan bo'lishi shart.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi "Favqulodda vaziyatlar to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2000.
2. O'zbekiston Respublikasi FVV. "Qutqaruv ishlari bo'yicha nizom". – Toshkent: FVV nashriyoti, 2021.
3. R. Umarov. "Favqulodda vaziyatlarda harakatlar". – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. Ismoilov. "Qutqaruv texnikasi va texnologiyalari". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. FVV Akademiyasi. "Qidiruv-qutqaruv texnik vositalari" o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022.
6. S. Zokirov. "Yong'in va qutqaruv ishlarida texnik vositalar". – Toshkent: O'quv qo'llanma, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasi FVV hisobotlari. "Favqulodda vaziyatlarda zamonaviy texnikadan foydalanish holati". – Toshkent, 2021.
8. D. Abdulloyev. "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish asoslari". – Toshkent: Universitet, 2020.
9. FVV. "Gidravlik va mexanik qutqaruv uskunalari qo'llanmasi". – Toshkent, 2017.
10. <https://lex.uz/>